Journal of Chemistry of Goods and Traditional Medicine

J Chem Good Trad Med, Volume 4, Issue 1, 2025 Traditional Medicine

YARALI KOLIT KASALIGINI DORIVOR O'SIMLIKLAR BILAN DAVOLASH

Xabibullo No'manjon o'g'li Qodirov
Andijon davlat tibbiyot institute Ichki kasalliklar propedevtika kafedrasi assistenti
https://orcid.org/0000-0001-6574-7576
E-mail: kodirovkhabibullo6@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55475/jcgtm/vol4.iss1.2025.392

Kalit so'zlar:
yarali kolit, dalachoy, bo'madaron, zubturum, tirnoqgul, andiz

Annotatsiya
Ushbu maqola yarali kolit kasalligi va uni davolashda qo'llaniladigan shifobaxsh o'simliklarning kimyoviy tarkibi xamda ulardan foydalanish usullari va ta'sir mexanizimlari xaqida ma'lumotlar keltirilgan.

Havola uchun
Qodirov, X. N. YARALI KOLIT KASALIGINI DORIVOR O'SIMLIKLAR BILAN DAVOLASH. Tovarlar Kimyosi Va Xalq Tabobati Jurnali, 4(1). https://doi.org/10.55475/jcgtm/vol4.iss1.2025.392

Kirish. Adabiyotlar ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda oshqozon ichak tizimi faoliyatining buzilishiga olib keladigan ko'p omillar, ya'ni ovqatlanish tartibining buzilishi, helikobakter infektsiyasi, spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlarning iste'mol darajasining ortishi, turli stresslar yara kasalligini rivojlanishida o'ziga xos bo'lgan ahamiyatga ega. JSSTning ma'lumotlariga ko'ra "yarali kolit uchrashi Janubiy Koreyada–100.000 aholiga–4,4, Yaponida–4,2 %, Norvegiyada– 6,5, Rossiiyada–7,5–13,0, AQShda– 9,0 holatni tashkil etadi». Yarali kolit kasalligini konservativ davolashning muvaffaqiyatli ta'sir qilishiga qaramasdan, yara teshilishida o'lim 2,5% dan 27% gacha ekanligi aniqlanadi. Agar bemorlar yara teshilishi sababli peritonit terminal fazasida va og'ir yondosh kasalliklari bilan murojat qilishsa, o'lim ko'rsatkichi 30% gacha ko'tarilishi"baholangan[6].

Yarali kolit bilan kasallanish O'zbekistonda 100 000 aholiga 50-80 kishini tashkil qiladi. Kasallikning eng yuqori darajasi 20 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan bemorlarda kuzatiladi". Yo'g'on ichak yallig'lanish kasalliklari tarqalishining ko'payishi hozirgi vaqtda yarali kolitga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishni yaxshilash talablarini oshiradi [11].

Yarali kolit tananing tizimli toksik reaktsiyalari, hayot uchun xavfli patologiyalar rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, tashrihdan keyingi davrda terapiyaning yangi usullarini qo'llash bilan yarali kolitni davolash samaradorligini oshirish katta ahamiyatga va talabga ega bo'lmoqda.

Jahon amaliyotida hozirgi vaqtda yo'g'on ichak patofiziologiyasi va yallig'lanish bilan uchraydigan ichak kasalliklari paydo bo'lishining patogenetik mexanizmlarini o'rganish eng dolzarb tadqiqot bo'lib qolmoqda. Tizimli toksik reaktsiyalar rivojlanishi va qon ketish, psevdopoliplar, toksik kengayish va ichak perforasiyasi kabi ichak asoratlari rivojlanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yarali kolitga alohida e'tibor beriladi. Shundan kelib chiqgan holda, yarali kolitni tashrihdan keyingi davrda eng samarali yangi davolash usullarini izlash, ulardan amaliyotda foydalanish ushbu sohadagi eng muhim yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda [5,8].

Ko'plab olimlarning aytishicha, "yara kasalligini konservativ davolash uning asoratlarini uchrash sonini kamaytiradi. Xususan katta yoshlilarda 65 yoshdan oshgan bemorlar guruhida yara

kasalligining ancha og'irlashgan asorat turlari uchrashi, davolash samarasi yetarlicha bo'lmagani, og'ir yondosh kasalliklar bo'lgan bemorlarda yangi biologik faol qo'shimchalar yaratish davo usullarini izlashni talab qiladi". Hozirgi kunda kasallikni tashxislashda qo'llaniladigan standart tashxislash arsenalini qo'llash har doim ham to'g'ri tashxis qo'yish imkonini bermaydi, bu esa radikal operasiya usulini ishlatish imkoniyati bo'lgan bemorlarda "qimmatli" vaqtni yo'qotishga sabab bo'ladi. Yuqorida qayd etilganlarni inobatga olib, ushbu muammoni hal qilish soha xodimlari oldida turgan dolzarb muammolardan biridir [10].

Yarali kolitni davolashda an'anaviy davolash usullarini samaradorligini baholash va uni yaxshilashning asosiy yo'llarini oydinlashtirish, yarali kolit bilan bemorlarda Yara substratini morfometrik belgilarini baholash va shu asosida amaliyotdan keyingi davrda yara kasalligini davolash algoritmini ishlab chiqishga qaratilgan sog'lomlashtiruvchi chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish va oldini olishga qaratilgan davolash tizimini yaratish alohida kasb etadi [4,7].

O‘zbekistonda biologik faol qo'shimchalardan foydalanishga qiziqish yaqinda o‘sa boshladi. O‘zbekistonda asosan multivitaminlar va probiotiklar is’temoli birinchi o‘rinda turadi.

Axolimiz ularni zirovor sifatida ovqatlarga qo’shib iste’mol qiladi yoki choy damlaydi, lekin xammamiz xam dorivor giyoxlarning shifobaxsh xususiyatlari xaqida aniq ma’lumotlarga ega emasmiz, zeroki tib ilimini bilimdoni Abu Ali Ibn Sino aytganidek dori darmonlarni tabiatdan o’rganishimiz kerak.

O’zbekistonda 1000 ga yaqin dorivor o’simliklari bor 700ga yaqin dorivor o’simliklarni bobo kalonimiz Abu Ali Ibn Sino foydalingan xozirgi paytda xalq tabobatda, deyarli 99 % atrof muhitda yovvoyi xolatda o’sgan o’simliklardan foydalaniladi, faqat 1-2 % ni esa tabiblar, yoki dehqon xo’jalikdagilar yetishtirmoqda[9] .

Bu dorivor o’simliklar asosan ekologik toza xolda foydalanilishi kerak. O’zbekistonda dorivor o’simliklarini yetishtirish, va ularni qo’llash bo’yicha bilimlari yetarli emas. Shuning uchun aholiga dorivor o’simliklarini tayorlash bo’yicha bilimni oshirish kerak. Dorivor o’simliklar qayerdan yig’ilgan va qaysi landshafda o’sadi, dengiz satxidan qancha balandlikda o’sadi, qaysi holda va qaysi davrda terish muhim ekanligi xaqida tushintirish ishlarini olib borish kerak.

Albatta xar bir o’simlikning terish mavsumi bor. Dorivor o’simliklarning vegetatsion davrida, kunni qaysi paytida terish kerak ekani va erta azonda terib bo’lmasligi, ko’p o’simliklarda shudring bo’lishi, buning natijasida ko’pchilik o’simliklaring qorayishi, xar qanday kimyoviy reaksiya bo’lishi mumkinligini inobatga olish zarur. O’simliklarni yig’ish davri aprel- may oylaridan boshlaniladi. Misol uchun oddiy dalachoy- bu o’simlik asosan tog’ yon bag’irlarida 600 metr balandlikda o’sadi, dala choyini ikki xil turi bor: oddiy va qiyin sharoitga chidamli turlari mavjud. Bu o’simlik aprel oyidan boshlab may oygacha gullaydi . bu o’simlikdan xalqimiz keng miqyosida ishlatadi.

Bo'yimodaron (Achillea millefolium L.), Astrovye oilasiga tegishli (Asteraceae Dumort.). Bo'yimadaron barglari o'rta asrlarda "Venera kipriklari" deb nomlangan va butun o'simlik "askar o'ti" deb nomlangan, chunki u yaralarni davolash uchun ishlatilgan [3].

Barglarda alkaloid axillein, betonisin mavjud. Barglar va Inflorescences ichida efir moyi (0,8%) [2] , glikozidlar, esterlar, kofur, tuyon, sineol (8-10%), organik kislotalar, qatronlar, achchiq moddalar, spirtlar, vitamin C va vitamin K, karotin;

Zubturum ko'p yillik, kalta va yo'g'on ildizpoyali o't o'simlik. Gul o'qi bittta yoki bir nechta, bo'yi 10 – 70 sm ga yetadi. Bargi bandli, keng tuxumsimon, keng ellipssimon (katta zubturum) lantsetsimon, cho'ziq yoki tor lantsetsimon, o'tkir uchli (lantsetsimon zubturum) bo'ladi. Gullari mayda, ko'rimsiz, oddiy boshoqqa to'plangan. Mevasi – tuxumsimon, ko'p urug'li ko'sakcha. May – sentyabr oylarida gullaydi va mevasi pishadi, zubturum gullaganida bargi yig'iladi va yupqa yoyib, salqin yerda quritiladi. Mevasi pishgan vaqtida yig'iladi va yanchib, elab, tozalab, urug'ini ajratib olinadi. Zubturum turlari tarkibida glikozidi, vitamin C va K, karotin , saponinlar, organik kislotalar, T-faktor , oz miqdorda alkoloidlar va boshqa birikmalar bor [1].

Tirnoqgul (lotincha nomi)– qoqidoshlar (murakkab guldoshlar) oilasiga mansub bir yillik o't o'simlik. Poyasi tik o'suvchi, asos qismidan shoxlangan, ko'p qirrali bo'lib, balandligi 75 sm gacha etadi. Barglari cho'ziq – teskari – tuxumsimon, bandli (poyani yuqoridagilari bandsiz va cho'ziq-lantsetsimon), tekis qirrali bo'lib, poya va shoxlarida ketma-ket o'rnashgan. Sariq yoki to'q sariq tilsimon va naychasimon gullari poya va shoxlari uchidagi gulto'plami – yirik (diametri 8 smgacha) savatchaga joylashgan. Mevasi – egilgan pistasimon. Iyundan kech kuzgacha gullaydi, mevasi iyulning oxirida – avgustda yetiladi. Ovqatga gul to'plami – savatchalari dimlab pishirilgan taomlarga garnir sifatida solinadi, sho'rvalarga, salatlarga shuningdek yoqimli hid va rang berish uchun pishloqqa ham qo'shiladi.

Andiz (Inula) qoqio’tdoshlar (Asteraceae) oilasiga mansub ko’p yillik osimlik turkimi. Bu turkimning 100 ga yaqin turlari mavjud. O’zbekistonda esa Andiz turkimining 9 ta turi bor. Bo’ydor bo’lib o’sadiganlari esa qora andiz (Inula helenium) va sariq andiz (Inula grandis) turlari ko’proq tarqalgan. Bu turlarning poyalari baland bo’yli (1-2,5 m), bir oz qirrali , tukdor; ildizpoyasi (tanasi) yog’on , barglari butun, cheti notekkis, poyaning quyi qismida yirik (uzunligi 40-50 sm, eni esa 20-25 sm), yuqorisida esa maydaroq (uzunligi 10-30 sm, eni esa 3- 12 sm); guli savatcha , gulbandi yog’on, chetdagi gullari urug’chili o’rtadagilari esa ikki jinski, sariq. Iyunning oxiridan sentabrgacha gullaydi.Adir va tog’larda dengiz sathidan 500- 2000 m gacha bo’lgan balandliklarda o’sadi. Qora andiz (Inula helenium) ildizpoyasi tarkibida 3 foizgacha efir moyi, 44 foizgacha inulin, saponin va boshqa moddalar bor. Ildizpoyasidan tayyorlangan damlama balg’am ko’chiruvchi dori sifatida ishlatiladi. Sariq andiz (Inula grandis) ham tabobatda siydik haydovchi dori sifatida ishlatiladi. Sariq andiz ildizpoyasidan esa levulyoza (fruktoza) olinadi.

Dalachoy , zubturum, andiz va tirnoqgullarni xar biridan 2 qoshiqdan olib 1.5 litr qaynagan suvga damlanadi. Ikki soat turgandan so’ng suzib olib, 0.5 litr damlamani sutka davomida ichiladi va uning 1.0 litrini tozalov klizmasidan so’ng, klizma sifatida ishlatilinadi. Ushbu dorivor o’simliklar yarali kolit terapiyasi bilan og'rigan bemorlarda samarali ekanligi isbotlangan, yengil va o'rtacha faollik darajasidagi kolitni davolash bo'yicha chora tadbirlar tavsiyalarga kiritilgan.

Dorivor o’simliklarning damlamasini ichish va huqna shakllarda qo’llash mumkin. Yarali kolitni yengil va o’rta og’ir darajalarini remissiyasiga erishilganda, bemorga kamida 2 yil davomida qo'llab-quvvatlovchi davo buyurilishi kerak, bu davrda dorivor o’simliklar yarali koliti bor bemorlarga buyuriladi. Shunday qilib, yengil va o'rta darajadagi yarali kolit bilan remissiyaga erishish uchun, birinchi darajali davo sifatida dorivor o’simliklarinning rektal shakllari foydalanish tavsiya etiladi.

Xulosa.

1.Surunkali yarali kolit yo'g'on ichakning surunkali kasalligi bo'lib, uning shilliq qavatining immun yallig'lanishi bilan tavsiflanadi, bugungi kunda surunkali yarali kolit yoshidan qat'iy nazar, butun dunyo bo'ylab millionlab odamlarga ta'sir qiladigan eng ko’p uchrayotgan kasalliklardan biri xisoblanadi.

2. Surunkali yarali kolitni davolashda bemorlar hayot sifatini yaxshilash, steroidlarsiz remissiyaga erishish va kolorektal saraton xavfini kamaytirishga asoslangan.

3. Surunkali yarali kolitni davolashda asosiy sintetik dori vositalari bilan birgalikda biologik faollashgan qo’shimchalar bilan qo’llaganimizda davolash samaradorligi yanada ortadi.

Adabiyotlar

1. Jo'rayeva M.A. "Dorivor o'simliklar atlasi" O'quv qo'llanma., Toshkent noshir 2019 y., 52-53b.
2. Asqarov. I.R. "Tabobat qomusi". "Mumtoz so'z" nashriyoti Toshkent-2019 y. 1016-1017 b.
3. Asqarov. I.R. "Dalillarga asoslangan xalq tabobati usullari". Toshkent-2023 y. 440-445 b.

4. Бондарчук Р.А. "Фармакогностическое исследование хвоща лесного как перспективного источника биологически активных соединений". Avtoreferat. Samara- 2013
5. Asqarov. I.R., Ubaydullayev K. T. "Za'faron gultumshuqchalarining makro va mikroelementlar tahlili". Journal of Cemistry of Goods and Traditional Medicine. Vol.2, 2023.
6. Imomova M., Karimova S. "TIF TN talablari asosida asalning kimyoviy tarkibini o'rganishning ekspress usullarini ishlab chiqish." Журнал химии товаров и народной медицины. 2022 1. 70-81.
7. Аржанов Ю.В. Трансформация дистальных форм неспецифического язвенного колита в распространенные / Ю.В. Аржанов, О.Ю. Карпухин // Казанский медицинский журнал. - 2004. -№5. - С.350-352.
8. Белоусова Е.А., Абдулганиева Д.И., Алексеева О.П. и др. Социально-демографическая харак- теристика, особенности течения и варианты лечения воспалительных заболеваний кишечника в России. Результаты двух многоцентровых исследований. Альманах клинической медицины. 2018;46(5):445–463. doi: 10.18786/2072-0505-2018-46-5-445-463.
9. Белоусова Е.А., Никитина Н.В., Цодикова О.М. Лечение язвенного колита легкого и среднетя- желого течения. Фарматека. 2013;(2):42–46.
10. Белоус С.С. Оценка качества жизни и психического статуса больных язвенным колитом в фазе ремиссии / С.С. Белоус, О.В. Головенко, И.Л. Халиф // Клинические перспективы гастроэнтерологии, гепатолоши. - 2013. - №3. - С.25-32.
11. Бакулин И.Г., Скалинская М.И., Сказываева Е.В. Место месалазина в терапии язвенного колита. Медицинский совет. 2017;(15):76–80. doi: 10.21518/2079-701X-2017-15-76-80.